

**PARALIMPIYA SPORTCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA
QILISHNING XALQARO HUQUQIY STANDARTLARI: BMT VA
PARALIMPIYA HARAKATI O'RTASIDAGI HAMKORLIK**

Xoshimova Saodatxon

Toshkent davlat yuridika universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi
saodatkhashimova267@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu maqolada paralimpiya sportchilarining huquqlarini himoya qilishda xalqaro huquqiy standartlarning ahamiyati va ularning amaliyotdagi aks etishi yoritiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi o'rtasidagi hamkorlik, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va Paralimpiya nizomlarining mazkur jarayondagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, tenglik, inklyuziya va sportda diskriminatsiyaga qarshi kurashish tamoyillarining xalqaro miqyosda qanday amalga oshirilayotgani ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** paralimpiya sportchilari, xalqaro huquqiy standartlar, BMT, inklyuziya, inson huquqlari.*

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ СТАНДАРТЫ ЗАЩИТЫ
ПРАВ ПАРАЛИМПИЙСКИХ СПОРТСМЕНОВ: СОТРУДНИЧЕСТВО
МЕЖДУ ООН И ПАРАЛИМПИЙСКИМ ДВИЖЕНИЕМ**

Хашимова Саодахан

Ташкентский государственный юридический университет
Факультет магистратуры и заочного образования
Студент факультета права СМИ
saodatkhashimova267@gmail.com

***Аннотация:** в статье рассматривается значение международных правовых стандартов в защите прав паралимпийских спортсменов и их применение на практике. Анализируется сотрудничество между ООН и Международным паралимпийским комитетом, в частности, на основе*

Всеобщей декларации прав человека, Конвенции о правах инвалидов и нормативных документов МПК. Также освещается реализация принципов равенства, инклюзии и недопущения дискриминации в спорте на международном уровне.

Ключевые слова: паралимпийские спортсмены, международные правовые стандарты, ООН, инклюзия, права человека.

**INTERNATIONAL LEGAL STANDARDS FOR THE
PROTECTION OF THE RIGHTS OF PARALYMPIC ATHLETES:
COOPERATION BETWEEN THE UN AND THE PARALYMPIC
MOVEMENT**

Khashimova Saodatkhan

Tashkent State University of Law

Faculty of Master's and Correspondence Studies

Student of Mass Media Law

saodatkhashimova267@gmail.com

Annotation: *this article examines the significance of international legal standards in protecting the rights of Paralympic athletes and how these standards are implemented in practice. The cooperation between the United Nations and the International Paralympic Committee is analyzed, particularly through the Universal Declaration of Human Rights, the Convention on the Rights of Persons with Disabilities, and the IPC's regulatory framework. It also explores the global enforcement of principles such as equality, inclusion, and non-discrimination in sports.*

Keywords: *paralympic athletes, international legal standards, UN, inclusion, human rights.*

Kirish (Introduction)

So'nggi o'n yilliklarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning jamiyatdagi to'laqonli ishtirokini ta'minlash

va teng imkoniyatlar yaratish borasida xalqaro huquqiy mexanizmlar sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayon, ayniqsa, sport sohasida yangi yondashuvlarni shakllantirish orqali nogiron sportchilarning inson huquqlari himoyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu munosabat bilan, Paralimpiya harakati nogironligi bo'lgan shaxslarning jismoniy faolligi va sportdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi global platforma sifatida shakllanmoqda. Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi bu harakatni qo'llab-quvvatlayotgan asosi hisoblanib, bugungi kunda BMT bilan hamkorlikda inson huquqlari targ'iboti, inklyuzivlik va barqaror rivojlanishga erishish yo'lida faoliyat yuritmoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1993-yilda qabul qilingan "Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha standart qoidalar" va 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" xalqaro miqyosda nogironlarning sport sohasida teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlar bo'ldi. Ushbu xalqaro qonuniy hujjatlar nogiron sportchilar uchun muhitga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, sport inshootlari va musobaqalarga bo'lgan qulayliklarni yaratish, shuningdek, ularni jamiyatning to'liq a'zolari sifatida tan olish zarurligini e'tirof etadi.

BMT va Xalqaro paralimpiya qo'mitasi o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishi 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu davrda nogiron sportchilar uchun inklyuziv siyosatlarni ilgari surish, jamoatchilikni xabardor qilish va nogironlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Xalqaro paralimpiya qo'mitasi prezidenti Endryu Parson tomonidan ilgari surilgan g'oya — sport orqali global miqyosda nogironlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirish — bugungi kunda xalqaro huquqiy me'yorlar va sport diplomatiyasi orqali faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ushbu maqola paralimpiya harakati va BMT oʻrtasidagi hamkorlikni, ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish, inklyuziv sport muhitini yaratish va nogiron sportchilarning global miqyosdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashda xalqaro huquqiy hujjatlarning oʻrnini tahlil qilishga qaratilgan.

Uslublar (Methods)

Ushbu tadqiqotda Paralimpiya harakati va BMT oʻrtasidagi hamkorlik doirasida nogiron sportchilarning xalqaro huquqiy himoyasini oʻrganishga qaratilgan yondashuvlar qoʻllanildi. Tadqiqot sifatida huquqiy tahlil (legal analysis) usuli tanlandi, bu esa xalqaro huquq normalari, shartnomalar, BMT rezolyutsiyalari, Xalqaro pralimpiya qoʻmitasi Ustavi va boshqa rasmiy hujjatlarni tizimli ravishda oʻrganish orqali amalga oshirildi. Asosiy eʼtibor 1993-yildagi “Nogironlar uchun teng imkoniyatlar boʻyicha standart qoidalar”, 2006-yildagi “Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya”, 2013-yildagi BMT Inson Huquqlari Kengashining 24/1-sonli rezolyutsiyasi, hamda 2020-yilgi Xalqaro pralimpiya qoʻmitasi va BMT Inson Huquqlari Kengashi oʻrtasidagi hamkorlik shartnomasiga qaratildi. Shuningdek, xalqaro nodavlat tashkilotlarning BMT bilan oʻzaro aloqasi, maslahat maqomi, hamkorlik shartlari va sport diplomatiyasi doirasida amalga oshirilgan tashabbuslar tahlil qilindi. Tahlil uchun ikkilamchi manbalar — ilmiy maqolalar, ekspert fikrlari, va rasmiy bayonotlardan ham foydalanildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, xalqaro huquq tizimida nogiron sportchilar, xususan, Paralimpiya sportchilari huquqlarining himoyasi BMT va

Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi o'rtasidagi tizimli hamkorlik orqali shakllanib bormoqda. Dastlab, 1993-yil 20-dekabrda qabul qilingan "Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha standart qoidalar" nogironlar hayotining barcha jabhalarida tenglik tamoyilini ilgari surdi. 11-qoidada nogironlar sporti alohida tilga olinib, ularga sport inshootlariga kirish va faol ishtirok etish imkoniyatlari yaratilishi kerakligi ta'kidlandi. 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"da esa sport huquqi ancha aniq va majburiy shaklda belgilandi. Ayniqsa, 30-moddada nogiron shaxslarning madaniy, sport va dam olish hayotida qatnashish huquqlari mustahkamlandi. Bu Konvensiyaning XV bobida davlatlarga paralimpiya harakatini qo'llab-quvvatlash majburiyati yuklatilgan.

Tadqiqot shuningdek, 2013-yildagi BMT Inson huquqlari kengashining 24/1-sonli rezolyutsiyasi sport orqali inson huquqlarini targ'ib qilishda paralimpiya harakatining ahamiyatini tan olganini ko'rsatdi. Rezolyutsiyada davlatlarga sportni inklyuziv jamiyat qurish vositasi sifatida qo'llab-quvvatlashga chaqiriq yo'llangan. Ayniqsa, nogironlarning sportda ishtiroki tinchlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda muhim vosita sifatida qaralgan.

2020-yil 2-dekabrda Xalqaro paralimpiya qo'mitasi va BMT Inson huquqlari boshqarmasi o'rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasi esa paralimpiya harakatining xalqaro huquqiy maqomini yanada mustahkamladi. Ushbu hujjat COVID-19 pandemiyasi fonida Tokiodagi Paralimpiya o'yinlarini inklyuzivlik, inson huquqlari va global o'zgarishlar vositasiga aylantirishni ko'zda tutgan. Shuningdek, Xalqaro paralimpiya qo'mitasining 2008-yildan boshlab BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (ECOSOC) huzuridagi maxsus maslahat maqomi uni rasmiy xalqaro hamkorlik sub'yektiga aylantirgan. Natijada, paralimpiya

SJIF: 5.051

harakati nafaqat sport tashabbusini, balki nogironlarning huquqiy himoyasi, inklyuzivlik va global ijtimoiy o'zgarishlar uchun muhim platformaga aylangani aniqlandi. BMT va Xalqaro paralimpiya qo'mitasi hamkorligi esa bu jarayonning huquqiy va siyosiy asoslarini kuchaytirmoqda.

Tahlil va muhokama (Discussion)

Paralimpiya sportchilari huquqlarining xalqaro miqyosda himoya qilinishi global inklyuzivlik tamoyillarining rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, nogironlar sportini qo'llab-quvvatlash, ularni xalqaro sport maydoniga chiqarish va ularning huquqiy maqomini mustahkamlash bo'yicha muhim yutuqlar mavjud. Biroq bu yo'nalishdagi taraqqiyot izchil bo'lishi uchun huquqiy va amaliy mexanizmlar o'rtasidagi muvofiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. 1993-yildagi standart qoidalar, garchi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, paralimpiya sportchilari huquqlarining ilk huquqiy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi. Bu xalqaro hujjatda nogironlarning sport infratuzilmalariga kirish imkoniyatini kafolatlash, ularning sportga jalb etilishini qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlangan. Bu qoidalar keyinchalik 2006-yilgi konvensiyada ancha majburiy huquqiy me'yorlarga aylantirildi. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, ayniqsa 30-moddasi, sport orqali nogironlarning ijtimoiy integratsiyasiga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

BMT Inson huquqlari kengashining 2013-yilgi 24/1-sonli rezolyutsiyasi esa sport orqali inson huquqlarini ilgari surish yo'lida Paralimpiya harakatining o'rnini aniq belgilab berdi. Bu hujjat sportni, xususan, Paralimpiya o'yinlarini jamiyatdagi nohaqlik, qashshoqlik, tengsizlik va ijtimoiy ajratilganlikka qarshi kurash vositasi sifatida tan oldi. Xalqaro paralimpiya qo'mitasining va Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi o'rtasidagi 2020-yildagi shartnoma ushbu hamkorlikni yanada tizimlashtirishga xizmat qildi. Tokiodagi paralimpiya o'yinlarini inson huquqlarini ilgari surish vositasiga aylantirish bo'yicha olib borilgan global kommunikatsiya kampaniyasi sportni faqat jismoniy faoliyat emas, balki ijtimoiy o'zgarish vositasi sifatida namoyon etdi. Biroq, bu yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba'zi mamlakatlarda Paralimpiya sportchilari hali ham zarur infratuzilmalardan foydalanish imkoniga ega emaslar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetarli darajada emas yoki ularning sportdagi yutuqlari ommaviy axborot vositalarida yetarlicha yoritilmaydi. Bu esa nogiron sportchilarning ijtimoiy tan olinishi va ularning huquqlarining keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga to'sqinlik qiladi. Xalqaro paralimpiya qo'mitasining BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (ECOSOC) huzurida maxsus maslahat maqomiga ega bo'lishi esa uni xalqaro siyosiy muloqotda muhim aktorga aylantirdi. Xalqaro paralimpiya qo'mitasining BMT bilan teng hamkorlik asosida siyosat ishlab chiqish, tadqiqotlar olib borish va strategiyalar ishlab chiqishda ishtirok etishi global miqyosda nogironlar huquqlari borasida kutilgan natijalar berayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun ular milliy darajada ham izchil amalga oshirilishi talab etiladi. Ayrim mamlakatlarda infratuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash yoki qonunchilik darajasida hali ham muayyan kamchiliklar mavjud. Shu sababli, mavjud xalqaro huquqiy asoslarni milliy qonunchilikka moslashtirish va ularni amaliyotda tatbiq etish dolzarb vazifadir.

Tavsiyalar :

1. **Huquqiy uyg'unlikni ta'minlash:** Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga oid xalqaro hujjatlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish kerak. Bu nogiron sportchilarning huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. **Sport infratuzilmasini moslashtirish:** Davlatlar va sport tashkilotlari sport inshootlari va tadbirlarini nogiron shaxslar uchun to'siqsiz va qulay holga keltirishlari lozim. Bu, ayniqsa, ayollar va bolalar kabi zaif guruhlar uchun muhimdir.

3. **OAV va ijtimoiy ongni shakllantirish:** Paralimpiya sportchilari yutuqlarini keng targ'ib qilish, jamiyatda ularning ijobiy imijini yaratish inson huquqlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

4. **Monitoring va baholash tizimini yaratish:** Har bir davlat Paralimpiya sportchilari huquqlarini amalga oshirish bo'yicha milliy darajada monitoring tizimini yo'lga qo'yishi lozim. Bu natijalarga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Paralimpiya harakati nafaqat sport muvaffaqiyatlarni, balki inson huquqlarini ilgari surish, ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan kuchli xalqaro harakatdir. Bu yo'ldagi yutuqlarni mustahkamlash esa xalqaro hamkorlik va milliy majburiyatlarning uyg'unlashuviga bog'liq.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1993). "Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha Standart qoidalar". BMT Bosh Assambleyasining 48/96-sonli rezolyutsiyasi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2013). “Inson huquqlarini sport va Olimpiya ideali orqali targ‘ib qilish”.BMT Inson Huquqlari Kengashining 24/1-rezolutsiyasi.
3. International Paralympic Committee (IPC). (2011). *IPC Constitution*. Bonn, Germany.
4. Economic and Social Council (ECOSOC). (1996). *Resolution 1996/31 on Consultative Relationship between the United Nations and Non-Governmental Organizations*.
5. International Paralympic Committee. (2021). *WeThe15 Campaign* [Online]. Available at: <https://www.paralympic.org/wethe15>
6. Российская Паралимпийская Комиссия. (2020). *Устав Общероссийской Общественной Организации «Паралимпийский Комитет России»*
7. IPC. (2021). *Tokyo 2020 Paralympic Games Impact Report*. Bonn, Germany.